

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA IQTIDORLI BOLALARНИНГ IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELI

*NamDU doktoranti D.Z. Jabbarova*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Umumta'lism maktablarida iqtidorli bolalarining ijodkorligini rivojlantirish modeli, shaxsni ta'limning iste'molchisidan bu jarayonning ijrochisiga aylantirish, uning faolligini oshirish, rivojlanishini tezlashtirish, kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'yekti va ob'yekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshirish hususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Shaxs, uzlucksiz ta'lim, ta'lim, texnologiya, pedagogik mahorat, mutaxasis, ta'lim sifati, intellektual resurslar, bilim, ko'nikma, malaka, moddiy texnika.

### **МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСТВА ОДАРЕННЫХ ДЕТЕЙ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ**

**Аннотация.** В данной статье рассматривается модель развития творчества одаренных детей в общеобразовательных школах, трансформация личности из потребителя образования в исполнителя этого процесса, повышение ее активности, ускорение ее развития, становление главным субъектом и объектом системы подготовки кадров, потребителем услуг в сфере образования и характер их реализации.

**Ключевые слова:** Человек, непрерывное образование, образование, технология, педагогическое мастерство, специалист, качество образования, интеллектуальные ресурсы, знания, умения, компетентность, материальная оснащенность.

### **MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF GIFTED CHILDREN IN SECONDARY SCHOOLS**

**Annotation.** This article reflects on the model for the development of creativity of gifted children in secondary schools, the transformation of a person from a consumer of education to an executive of this process, increasing its activity, accelerating its development, the main subject and object of the personnel training system, the consumer of services in the field of education and the focus of their implementation.

**Keywords:** Person, continuing education, education, technology, pedagogical skills, specialist, quality of education, intellectual resources, knowledge, skills, competence, material equipment.

O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturida Ta'limning milliy modelim. tarkibiy qismlari ta'riflanib, ularning asosiy vazifalari belgilab

berilgan. Jumladan, shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'yekti va ob'yekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchidir. Ta'limning milliy modelining o'ziga xosligi tarkibiy qismning boshlanishidayoq yaqqol namoyon bo'ladi. Unda shaxsga ta'limning iste'molchisi, ya'ni ob'yektigina emas, balki uni amalga oshiruvchi, ya'ni ta'lim jarayonining sub'yekti sifatida ham qaraladi. Bu hol shaxsni ta'limning iste'molchisidan bu jarayonning ijrochisiga aylantiradi, uning faolligini oshirib, rivojlanishini tezlashtiradi.

Davlat va jamiyat - ta'lim hamda kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat kilishni amalga oshiruvchi, kadrlar tayyorlash va ularni kabul kilib olishning kafillaridir. Ta'limning milliy modelim.ga ko'ra, davlat va jamiyat o'z zimmasiga kadrlar tayyorlash ishini tashkil etish, ta'lim jarayonini nazorat qilish hamda tayyorlangan mutaxassislar faoliyatini yo'lga qo'yish kafolatini oladi.

Uzluksiz ta'lim - malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat kursatish muhitini o'z ichiga oladi. Ta'limning milliy modelim. shaxsning kamoloti umr buyi davom etadigan uzluksiz jarayon ekanligiga asoslanadi. Shuning uchun ham ta'lim tizimlarining barkamol insonni shakllantirishda ishtirok etishi lozim bulgan barcha bo'g'inlar faoliyati uзвиy va uzluksiz bo'lishi ko'zda tutiladi. Ta'limning muayyan bosqichida biror shaxsda shakllantirilishi lozim bo'lgan bilim, malaka va kunikmalar miqdori, tartibi qamda bajarilish jarayoni ayni shu uzluksiz ta'lim tomonidan amalga oshirilishi zarur bo'ladi.


Fan - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydi va ulardan foydalanadi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqadi. Ta'limning milliy modelim.ning bu tarkibiy qismiga Kadrlar tayyorlash milliy dasturida alohida ahamiyat berilgan. Chulki malakali mutaxassislarni tayyorlashda fan yutuklaridan foydalanilganidek, yuqori malakali mutaxassislar ishtirokisiz fanning rivojlanishi ham mumkin emas. Demak, fan bir vaqtning o'zida tayyorlovchilik, iste'molchilik, rivojlantiruvchilik vazifalarini bajaradi.

Ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiytexnika jihatidan ta'minlash jarayonining katnashchisi. Ishlab chiqarish Ta'limning milliy modelim.ning eng asosiy qismlaridan biridir. Xalq xo'jaligining muayyan sohasi uchun zarur bo'lgan kadrlar miqdori, ularni tayyorlashda tayaniishi lozim bo'lgan iqtisodiy va texnologik asoslar ishlab chiqarish. tomonidan belgilanadi. Jamiyatning moddiy boyliklari ishlab chiqarish. jarayonida yaratilgani uchun u kadrlar tayyorlash tizimining moliyaviy va moddiy texnikaviy ta'minotini ham amalga oshiruvchi sanaladi.

Ta'limning milliy modelim.da kadrlar tayyorlash borasida xalqimizga xos milliy xususiyatlар maksimal darajada hisobga olinishi taqozo etiladi. Shuningdek, unda

barkamol shaxsni shakllantirish hamda uning akliy, kasbiy va ma'naviy imkoniyatlarini eng samarali yo'sinda ishga solish yo'llari aniq hisobga olingan. Ta'limning milliy modelimda shaxsda shakllantirilishi zarur bo'lgan kasbiy va ma'naviy sifatlarning uygunligiga alohida e'tibor berilgan.

Yuqorida barcha fikrlardan kelib chiqib, milliy ta'lim sifati ta'lim muassasalarini moliyalashtirish, moddiy-texnik jihozlash va zamonaviy boshqaruv texnologiyalarining mukammal joriy etilganligiga bog'liq jarayondir. Mazkur jarayonlarda ta'lim tizimining sifati muhim bo'lib, T.I.Shamova, T.M.Davidenko va G.N.Shibanovlar ta'lim sifati to'rtta tarkibiy qismlarning o'zaro alaqodorligi ta'lim tizimining ma'lum elementlariga mos keladigan xususiyatlarini ko'rsatadi. (2.4-rasmga qarang).



### **1-rasm. Ta'lim tizimlari sifati**

O'tgan XX asrning 90- yillaridan boshlab, o'quvchilar ijodkorligini rivojlantirishning boshqarish texnologiyasida faoliyat samaradorligini oshirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari, ta'lim sifati, intellektual resurslar sifati, inson hayotining asosiy ko'rsatkichi sifatida o'z aksini topa boshladi.

Bu borada Sh.Qurbanov<sup>1</sup> va E.Seytxalilovlarning tadqiqotlarida ta'lim sifati, ayniqsa milliy o'qitish tizimi deganda "ta'lim jarayonining turli ishtirokchilari ta'lim muassasasi tomonidan ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlaridan kutganlarining qanoatlantirilishi darajasi" yoki "ta'limda qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishish darajasi" sifatida tushuniladi va izohlanadi.

Olim O.Raximov esa, ta'lim sifati va uni baholash mezonlari, ta'lim standartlari, chet el va O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ta'lim sifati va uni baholash tizimi, oliy ta'lim muassasalarini akkreditatsiyalash tizimlari, ta'lim sifatini ta'minlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish usullarini keng joriy etish orqali baholashni nazarda tutadi.

Milliy ta'lim tizimi<sup>2</sup> nafaqat ta'lim oluvchilar, ijodkor o'quvchilar bilimining davlat standartlariga mosligi yoxud maksimal darajasini balki ta'lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi, boshqaruv imkoniyatlari shuningdek, har bir

<sup>1</sup> Курбонов Ш., Сейтхалилов Э. Таълим тизимини бошқариш. – Т.: «Турон-Иқбол», 2006. –101-6.

<sup>2</sup> 2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida Фармони Янги Ўзбекистон газетаси 2022. 12 май

pedagog va rahbarning ta'limgiz xizmatlari sifatini ta'minlashdagi yetuklik faoliyati natijasini ham belgilab beradi.

O'quvchilar ijodkorligini rivojlantirishning boshqarish texnologiyasida faoliyat samaradorligini oshirish milliy ta'limgiz tizimi boshqaruv imkoniyatlarini yanada faollashtiradi hamda zamonaviy o'qitishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlarini takomillashtiradi.

Yangi O'zbekiston ta'lumi turli buyruqbozliklardan holi bo'lib, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'limgiz bosqichlari orqali uning imkoniyatlari va iste'dodini shakllantirilishiga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Ta'limgiz tizimida o'qituvchi mutloq haqiqat degan aqida bir muncha eskirganligi bilan ahamiyat kasb etadi. Muammolar, ularning yechim yo'llari haqida mustaqil tafakkur qiluvchi o'quvchilarning, keng jamoatchilikning mulohazalari tinglanadi. Real vogeliklar asosida har bir mushohada dalillanadi va o'z isbotini topadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Yuldashev M.A. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'limgiz sifati menejmentini takomillashtirish // Pedagogika fanlari dok.diss.. Toshkent. 2016. – B. 14.
2. Yalov D.A. Klasternyyu podxod kak texnologiya upravleniya regionalnym ekonomicheskim razvitiem // Kompas promyshlennoy restrukturizatsii. 2004. № 2.
3. Qurbanov Sh., Seythalilov E. Ta'limgiz tizimini boshqarish. –Toshkent. “Turoniqbol”, 2006. - B. 101.
4. Isikava K. Yaponskie metody upravleniya kachestvom /// sokr. Per. s.angl / K. Isikava –M.: Ekonomika
5. Kamolova, A. O., & Akramjonova, F. A. (2024). PEDAGOGIK FAOLIYAT JARAYONLARIDA INNAVATSION TA'LIM JARAYONLARI ORQALI PEDAGOGLAR SALOMATLIGINI SAQLASH. Экономика и социум, (6-1 (121)), 302-305.
6. Xalimjanovna, A. M. (2024). Maktabgacha ta'limgiz tashkilotlarida ta'limgiz-tarbiyaviy faoliyatlarni tashkil etishga zamonaviy yondashuv ta'limgiz bilan amaliyot integratsiyasi. Science and innovation, 3(Special Issue 31), 451-454.
7. Asranbayeva, M. H. (2024). INKLYUZIV TA'LIM TIZIMIDA IMKONIYAT CHEKLANGAN O'QUVCHILARNI O'QITISHGA LINGVOPEDAGOGIK YONDASHUV. Academic research in educational sciences, 5(CSPU Conference 1), 331-336.
8. Kamolova, A. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasining manbalarini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. *Fan va ta'limgiz* Ilmiy jurnali/Impact Factor , 3 , 590-592.
9. Xayrullayev, M. M. O. G. L., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Kimyo fanlarini o'qitishda rolli o'yinlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari. *Science and Education*, 5(11), 187-190.
10. Асрсанбоева, М. Х. ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ РОДИТЕЛЬСКИХ ОТНОШЕНИЙ В СЕМЬЕ НА ОБРАЗОВАНИЕ ДЕТЕЙ. ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ, 14.